

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

NASIMOVA IRODA ZIYODULLA QIZI

PUBLITSISTIK JANRLARNING ZAMONAVIY INTERPRETATSIYASI

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent — 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) dissertatsiyasi mundarijasi**
**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora
filosofii (PhD) po filologicheskim naukam**
**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on philological sciences**

Nasimova Iroda Ziyodulla qizi Publitsistik janrlarning zamonaviy interpretatsiyasi.....	28
Насимова Ирода Зиёдулла кизи Современная интерпретация публицистических жанров.....	22
Nasimova Iroda Ziyodulla khizi Modern interpretation of publicity.....	43
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	47

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

NASIMOVA IRODA ZIYODULA QIZI

PUBLITSISTIK JANRLARNING ZAMONAVIY INTERPRETATSIYASI

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent — 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2672 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzjoku.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Toshpo'latova Nazira Qurbonovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Masharipova Tamara Joldasbayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Karimov Amrullo Ashurovich
filologiya fanlari doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 raqamli Ilmiy kengashining 2024-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil "____" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Mo'minov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

A.I.Safarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d.(PhD), dotsent

N.F.Muratova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Onlayn jurnalistikaning rivoji va texnologik omillar bevosita ijodiy jarayonlarning rivojlanishiga, janrlarning integratsiyalashuviga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Ayniqsa, so'nggi yillarda auditoriyaning vizual va raqamli ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada ortgani tufayli onlayn media axborot olishning qator qulay usullarini taqdim etmoqda. O'z navbatida katta auditoriyaga ega, obunachilari ko'p ommaviy axborot vositalari ham muttasil takomillashib, yaratayotgan mediamahsulotning shakl va mazmunini zamonga talablariga moslashtirmoqda. Shu nuqtayi nazardan axborot bozorining raqobat shartlari, jahon tajribasida yangi formatlar deb atalayotgan janrlar va ularning yangi mediaga integratsiyasini o'rganish xalqaro tajribada dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Jahon ommaviy axborot vositalarida ma'lumotni auditoriyaga sifatli, eskpressiv va zamonaviy usullar orqali yetkazish, mediamahsulot ishlab chiqarish jarayonida janrlarda yuz berayotgan o'zgarishlarga oid ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Birgina mediakontent doirasida audio, video, foto, mavzuga oid fon, infografika, statistik ma'lumotlar, tasvirlar va boshqa vizual vositalar orqali publitsistik janrlarning onlayn-muhitga qanday moslashganligi, materiallarni taqdim etishning yangi formatlarini o'rganish muhim sanaladi. Mamlakatimiz mediamaydonida axborot iste'molchilari orasida axborotni multimedia vositalari bilan birga qabul qilish, sifatli kontent masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, Prezidentimiz "Mamlakatning ichki va tashqi siyosatini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy o'zgarishlar, jamoatchilikning katta qiziqishini uyg'otayotgan voqealarning mohiyatini keng tushuntirish maqsadida har chorakda 100 tagacha materiallarni tayyorlash va e'lon qilish bo'yicha ommaviy axborot vositalariga ijtimoiy buyurtmalar berib borish"¹ vazifasini ustuvor qilib belgiladilar. Shundan kelib chiqib, publitsistika janrlarini yangi media resurslari orqali tasvir va ta'sir imkoniyatlarini o'rganish, mediakontentlarning formati, tili va uslubi bo'yicha ilg'or tamoyillarni ishlab chiqish zaruriyati tug'ilmoqda. Ayniqsa, internet jurnalistikada multimedia vositalarining keng qo'llanilishi janrlar o'rtasida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlarini tezlashtirmoqda, bu esa tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni², 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/-6083381>

²Ўзбекистон Республикасининг "Журналистлик фаолиятини ҳимоя қилиш тўғрисида"ги қонуни // URL: <http://lex.uz/docs/>. Ўзбекистон Республикасининг "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида"ги қонуни // URL: <http://lex.uz/docs/>

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Internet jurnalistikasida publitsistik janrlar xorij va o‘zbek mutaxassislari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, asosan, an‘anaviy jurnalistikaning badiiy-publitsistik janrlariga qo‘yiladigan talablarga tayanilgan. Bu borada o‘zbek jurnalistikasi ilmida O.Tog‘ayev, B.Do‘stqorayev, M.Xudoyqulov, A.Meliboyev, X.Do‘stmuhammad, S.Umirov, Y.Hamdamiyov, N.Qosimova, N.Muratova, T.Masharipova, M.Nuriddinova³, ning tadqiqotlari fikrimizga dalil bo‘ladi.

Mass-mediada multimediyaviy vositalarining paydo bo‘lishi va kontent boyitishning imkoniyatlari kengaygani tufayli onlayn mediada “internet-publitsistika”, “internet-janrologiya” kabi tushunchalar kirib keldi. Jumladan, Y.P. Proxorov, A.A.Tertichniy, Y.N. Veremeenkoning, K.A. Babina, S.G. Korkonosenko, V. Virovseva, Y.A. Baranova, M.V. Shkondin⁴, A.A. Kalmikov, N.S.Adonina⁵ning ilmiy ishlarida zamonaviy publitsistika, yangi media resurslarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tufayli jurnalistik asar mazmunidagi o‘zgarishlar, internet-publitsistikaning janr mezonlariga qanchalik mos kelishi yoritilgan bo‘lsa, G‘arb olimlaridan Charlz Forsevilli, Lili Pakuyet, Insuk Choi,

³To‘gaev O. Ўзбек бадийи пууолицистикаси. – Т.: Фан, 1973. Журналистика. Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. 5 жилд. – Т.: O‘zbekiston, 2019. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Т.: Тафаккур, 2010. Мелибоев А. Журналистика: касб, ижод, маҳорат. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. Дўстмуҳаммад Х. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий-методологик таҳлил. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. Ҳамдамов Ю. Ўзбекистон матбуоти ривожланишининг асосий тамойиллари, 1980-2013 йиллар (назарий категориялари эволюцияси): Автореф. дисс. док. филол. наук. – Т.: НУУз, 2022. Қосимова Н. Интернет журналистиканинг технологик асослари. – Т.: Art paper business MCHJ, 2012. Журналистика. Онлайн журналистика ва медида янги трендлар. 7 жилд. – Т.: O‘zbekiston, 2019. Муратова Н. Журналистика в Интернет: особенности on-line изданий Узбекистана и их функционирование в условиях глобального информационного рынка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т.: НУУз, 2011. Muratova N. Onlayn jurnalistika: nazariya va amaliyot. – Т.: Qaqnus media, 2019. Машарипова Т. Публицистика ва адабиёт // O‘zMU xabarлари. – Toshkent, 2013. № 3.

⁴Прохоров Е. Публицист и действительность. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1973. Корконосенко С. Основы журналистики. Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2006. Выровцева Е. В. Авторский жанр в современных российских СМИ / Е. В. Выровцева // Жанры СМИ: история, теория, практика: сб. материалов VI и VII Всерос. науч.-практ. конф. – Самара, 2014. Баранова Е.А. Конвергентная журналистика. Теория и практика. – М.: Издательство Юрайт, 2014. Шкондин М.В. Типология периодической печати. – М.: Аспект- Пресс, 2009. Калмыков А.А. СМИ и современные медиатехнологии. –М: АСМО-пресс, 2000. Шкондин М.В. Типология периодической печати. – М.: Аспект- Пресс, 2009.

⁵ Авдонина Н.С., Фокина И.А. Принципы и жанровое разнообразие литературного журнализма // Вопросы теории и практики журналистики, 2017. – №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-i-zhanrovoye-raznobraziye-literaturnogo-zhurnalizma> (дата обращения: 15.12.2023).

Gelen Benedikt, Edita Rogula, Mila Buchik⁶ adabiy jurnalistikaning internetga moslashuv jarayonlari, raqamli muhitdagi publitsistik materiallarning imkoniyatlari, formati, tili, an'anaviy publitsistikadan farqli jihatlari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida nazariy va qisman empirik manbalar sifatida xorijiy olimlarning ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalaridan keng foydalanildi. Xususan, A.R.Kotayeva⁷, M.A. Mironova⁸, M. Bulayeva⁹, A. Klimko¹⁰, M. Goroshkova kabi olimlarning ishlari, shuningdek, G'arb mutaxassislari Jon Bak va Monika Martinezning internet publitsistikasi janrlari bo'yicha, jumladan ocherk, longrid va storytelling yo'nalishlarida olib borgan izlanishlari o'rganildi. Biroq, publitsistik janrlarning zamonaviy talqini bo'yicha umumiy, konseptual tadqiqotlar mavjud emasligi ushbu ilmiy ishning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy onlayn media muhitida badiiy-publitsistik janrlarning o'zgarishi va moslashuvi, internet-publitsistikasi janrlarini aniqlash, ularning an'anaviy publitsistika janrlari bilan mushtarakligi va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy jurnalistikada ocherk janrining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

konvergensiya jarayonida internetning an'anaviy janrlar tizimiga ta'sirini tadqiq etish;

badiiy publitsistik janrlarga multimedia vositalarining qo'llanishi tufayli shakl va mazmundagi o'zgarishlarni tadqiq qilish;

onlayn nashrlarda yangi formatda uzatilayotgan publitsistik materiallarni tahlil qilish va an'anaviy publitsistik janrlar bilan taqqoslash;

internet publitsistikasida janrlar tasnifi va ularning multimediyaviy (longrid, storytelling, storymep) formatdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlash;

⁶ Edyta Rogula, Maciej Piasecki, Tomasz Naskręć. Literary Genre Recognition among Polish Blog Posts //Wrocław University of Science and Technology, 2016.; Mila Bujic, Mikko Salminen, Juho Hamari. Effects of Immersive Media on Emotion and Memory: An Experiment Comparing Article, 360-video, and Virtual Reality, International Journal of Human-Computer Studies, Volume 179, 2023.

⁷Котаева А.Р. Очерки в прессе и на ТВ: сравнительный речезанровый анализ. Жанры речи, 2019. №4 (24).

⁸Миронова М.А. (2017). Лонгрид как новый формат мультимедиа в российских и зарубежных онлайн-медиа. Вопросы журналистики, педагогики, языкознания, 2017. №36.

⁹Булаева М. Н. Мультимедийный лонгрид как новый журналистский формат. Журналистский ежегодник. 2015. №4.

¹⁰ Горшкова Мария Сергеевна, & Юферева Анастасия Сергеевна (2018). Мультимедийные лонгриды как формат в интернет-журналистике: анализ специфических особенностей. Знак: проблемное поле медиаобразования, (1 (27)), 105-110.

jahon va milliy internet nashrlaridagi e'lon qilinayotgan publitsistik materiallarning kompozitsion tuzilishi, uslubiy xususiyati va lisoniy imkoniyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida jahon va milliy internet segmentidagi "The New York times" gazetasining internet nashri "*ntimes.com*" "*theguardian.com*", "*lenta.ru*" milliy nashrlarimizdan *gazeta.uz*, *oyina.uz* saytlarida e'lon qilingan publitsistik janrlarga oid materiallar etib belgilangan.

Tadqiqotning predmetini bosma va onlayn nashrlarda chop etilgan publitsistik janrlardagi materiallarni o'rganishda badiiy-publitsistik metodlar, publitsistika qonuniyatlari va spetsifikasini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni adekvat holatda tashkil etish maqsadida bir nechta metodlar majmuyidan, ya'ni empirik va nazariy (tahliliy-sintetik, tarkibiy-tipologik, kontent-analiz, sotsiologik, modellashtirish, deduksiya va induksiya), badiiy publitsistik (giperbolik (bo'rttirish), metafora (detallashtirish), metonimiya (hissiy holat) fabula, emotsional-ekspressiv), diagnostik (jurnalistik kuzatuv, loyihalashtirilgan metodikalar, so'rovnomalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

janrlar nazariyasi tarkibida internet-publitsistikasi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoning ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan turi publitsistika 2.0 tushunchalarining ta'rifi ishlab chiqilib, ularning raqamli muhit sharoitida yangi media resurslari orqali tasvir va ta'sir imkoniyatlari kengaygan, formati, tili, uslubi jihatdan takomillashgan an'anaviy publitsistik janrlarning modifikatsiyasi ekanligi dalillangan;

internet jurnalistikasida multimedia vositalarining qo'llanishi tufayli janrlar orasida transformatsiya jarayonlarining sodir bo'lishi va internet muhitidagi yangi formatlar storytelling, longrid, veb dokumentalistika kabilar veb-janrlarga aylangani isbotlangan;

OAV kommoditizatsiyasi jarayonida axborotga tovar nuqtayi nazaridan qarab, publitsistik materiallarni monetizatsiya qilishning zamonaviy hamda kolleborativ usullari ishlab chiqilgan;

publitsistik janrlarning onlayn mediaga interpretatsiyasida an'anaviy va internet publitsistikasining o'zaro universal va farqli jihatlari, ularning shakl va mazmuni, ekspressiv-emotsional imkoniyatlarning auditoriya va axborot samaradorligiga konseptual ta'siri dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

internetning an'anaviy janrlar tizimiga ta'siri tadqiq etilib, badiiy publitsistik janrlarga multimedia vositalarining qo'llanishi tufayli yuzaga kelgan shakl va mazmundagi o'zgarishlar o'rganilgan hamda yangi formatda uzatilayotgan publitsistik materiallar an'anaviy publitsistik janrlar bilan solishtirilgan;

multimediaviy (longrid, storytelling, veb-hujjatli film) formatdagi xorijiy va milliy OAVdagi materiallar tahlil etilib, ushbu yo'nalishda "Oyina.uz" portalida uchta hujjatli, multimediaviy longrid e'lon qilingan;

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan onlayn nashrlarga, xususan, "gazeta.uz", "oyina.uz" kabi bir qator nashrlarga bunday materiallarning davomiylik kasb etishi

va takomillashishi, o'quvchilarning sifatli kontentga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi mavzuning aniq qo'yilgani, ishda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ilmiy adabiyotlardan olingani, ularning natijalar bilan mos kelishi, tadqiqot natijalarining xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslangani, obyekt sifatida tanlangan nashrlar faoliyatini tahlil qilish va jahon tajribasini o'rganishda Internet manbalaridan foydalanilgani, tahlillar, ilmiy-amaliy xarakterdagi xulosalarning qiyosiy metodlar bilan asoslangani, ilmiy fikr va takliflarning amaliyotda keng qo'llanilgani hamda tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy xulosalardan zamonaviy publitsistik janrlarga doir ilmiy-tadqiqot ishlarida, internet muhitida onlayn kontentlarga oid ilmiy-nazariy qarashlarning miqyosi kengaytirilishi, an'anaviy va zamonaviy janrlar qiyosiy tahlilining dolzarbligini asoslash, onlayn materiallarda mualliflarning ishlash tartibini takomillashtirishda hamda innovatsion, fundamental loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan taklif va mulohazalardan O'zbekistondagi internet nashrlarida e'lon qilingan multimediyaviy materiallarning tayyorlanish uslubi, bosqichlari, kollaborativ ishlash taribi bo'yicha aniq tavsiyalar berishda, "Multimediyaviy jurnalistika" kabi fan va maxsus kurslarni o'qitish uchun darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda amaliy foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Publitsistik janrlarning zamonaviy interpretatsiyasini tadqiq qilish jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida: an'anaviy publitsistik janrlar internet muhitiga onlayn kontentda yangi formatlar (storytelling, longrid, veb dokumentalistika kabilar) veb-janrlarga aylangani isbotlangani hamda badiiy publitsistik janrlarga multimedia vositalarining qo'llanishi tufayli shakl va mazmundagi o'zgarishlarning sodir bo'lishiga oid xulosalar "Oyina.uz" portali faoliyatiga tatbiq etilgan ("Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi"ning 2024-yil 21-fevraldagi /01/15-193-son ma'lumotnomasi). Natijada "Oyina.uz" axborot-tahliliy portalida publitsistik janrlardan biri bo'lgan ocherkning multimediyaviy (longrid, storytelling, veb-hujjatli film) formatdagi optimallashtirilgan turlari nashr etilgan va jurnalistlar hamda kontent yaratuvchilar malakasini oshirishda muhim manba vazifasini bajargan.

internet jurnalistikasida multimedia vositalarining qo'llanishi tufayli janrlar orasida transformatsiya jarayonlarining sodir bo'lishi va bu onlayn kontent yaratishda o'ziga xos tajriba va bilimlarni taqozo etishi aniqlangani, internet publitsistikasida janrlar tasnifi, xorij internet nashrlarida qo'llanilayotgan zamonaviy tendensiyalar bo'yicha taklif va mulohazalardan O'zbekiston Milliy axborot agentligining internet nashri faoliyatida foydalanilgan. ("uza.uz" saytining 2024-yil 6-iyundagi 01-23/613 son ma'lumotnomasi). Natijada internet saytlarida "multimediyaviy loyihalar bo'yicha alohida bo'lim tashkillashtirish yoki laboratoriya ochish zaruriyati" o'rganilgan. Bu esa tahririyat faoliyatini takomillashuviga va jurnalistlarning kasbiy mahoratini oshishiga yordam bergan.

janrlar nazariyasi tarkibida internet-publitsistika, publitsistika 2.0 tushunchalarining ta’rifi ishlab chiqilib, ularning ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati dalillangani hamda publitsistik janrlarning konvergensiya jarayonida internetning an’anaviy janrlar tizimiga ta’siri, multimedia vositalarining qo‘llanishi tufayli shakl va mazmundagi o‘zgarishlarni joriy qilish borasidagi ilmiy-nazariy tavsiyalardan “Yoshlik” jurnali faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 13-martdagi 01-03/304-son ma’lumotnomasi). Natijada zamonaviy konvergent tahririyatlarda milliy kontent yaratish va auditoriyaning sifatli vizual axborot berish muammosi, publitsistik matn yozish texnikasini kuchaytirish, tahririyat xodimlari uchun zamonaviy formatda materiallar tayyorlashning muvaffaqiyatli usullari ish jarayonida qo‘llanilgan va materiallarni multimediyaviy uslubda uzatish samaradorligi ortgan.

ommaviy axborot vositalarining har bir turida kommoditizatsiya jarayoni yo‘lga qo‘yilishi lozimligi, bu tendensiyani zamonaviy publitsistik janrlarga ham qo‘llash mumkinligi to‘g‘risida kerakli xulosa va takliflardan O‘zbekiston jurnalistlari uyushmasi o‘z faoliyatiga tatbiq etgan. (O‘zbekiston Jurnalistlari uyushmasining 2024-yil 14-iyundagi 02-18/199-son ma’lumotnomasi) Natijada tahririyatlar faoliyatini multimediyaviy jihatdan o‘rganish uchun kerakli manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jurnalistikada badiiy-publitsistik janrlar tadriji”** deb nomlangan birinchi bobida jurnalistikada publitsistikaning o‘rni va zaruriyati, uning dastlab qanday xususatlarni o‘zida aks etgani, turlari (falsafiy, ilmiy, hajviy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy) zamonaviy jurnalistikada publitsistik janrlarning o‘zgarishi va internet jurnalistikasida publitsistik janrlarga qo‘yiladigan talablar, shuningdek, janr, format va freym kabi tushunchalarning mashturak va farqli jihatlari, publitsistika 2.0 istilohining tobora ommalashayotgani va publitsistik janrlarning barcha turlari, xususan, ocherk, felyeton, pamphlet, esse, xat kabi janrlarning onlayn nashrlardagi interpretatsiyasi tahlil qilingan.

Zamonaviy publitsistik janrlar haqidagi doir ilmiy-nazariy adabiyotlarda bosma va onlayn nashrlardagi chop etilgan publitsistik janrlardagi materiallarni ishning asosiy predmeti sifatida tahlil etildi.

Publitsistika jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy jarayonlarga, dunyo miqyosida yuz berayotgan, odamlar ong-shuuriga, dunyoqarashi va turmush tarziga ta‘sir ko‘rsatayotgan voqea-hodisalarga tezkor va xolis munosabat bildiruvchi ijodiy tafakkur mahsulidir. “U o‘quvchi ongiga tez ta‘sir ko‘rsatadi, biror bir vazifa yoxud muammo xususida jamoatchilik fikrini yuzaga keltiradi, fikrni yo‘naltirishga yordam beradi. Publitsistika jamiyat hayotida mavjud muammolar tomon yuz buradi, voqea-hodisalar rivojini sinchkovlik bilan kuzatadi va tahlil etadi. Publitsist esa kuzatuvchi sifatida o‘z tafakkuri bilan voqelikni idrok etuvchi va uni his-tuyg‘ulari bilan zamondoshlariga yetkazib beradigan tadqiqotchi”¹¹ sanaladi. An‘anaviy va zamonaviy publitsistik janrlarni tahlil etishda janr va format tushunchalariga ham izoh berib o‘shni lozim deb topdik. Boisi bir vaqtning o‘zida audio, video va matnni ham bir materialning o‘zida jam qila oladigan internet asrida bu istilohlarga yanayam kengroq izoh berish muhim ahamiyatga egadir.

Janr haqida soha olimlarining turlicha qarashlari mavjud: janr bu matnlarni turkumlash vositasi bo‘lib, ularni tasniflash mezonlari mavjud, u material yaratish jarayonida ma‘lum maqsadga asoslanadi. Uning ifoda uslubi va syujetiga qarab qaysi yo‘nalishga mansub ekanligini aniqlash mumkin. Ba‘zi olimlar janrni ma‘lum shartlar yig‘indisidan iborat material deb hisoblasa-da, u o‘zining shakllanish tarixi va tasnifiga ega. Ayrim olimlar janrlarni o‘z evolyusion daraxti mavjud deb

¹¹Полонский А.В. Публицистика как особый вид творческой деятельности. //Вопросы журналистики, педагогики, языкознания, 2008. – № 11.

hisoblashadi. Ya'ni yangi paydo bo'layotgan shakllar, uslublar daraxtdan paydo bo'ladigan novdalar kabi tabiiy jarayondir. Internet asrida janrdan ko'ra format termini ko'p ishlatilyotgani va bu termin janr istilohidan o'sib chiqqan so'z sifatida izohlanyapti. Bu ikki tushunchani farqlash va material mazmuniga baho berish uchun, avvalo ularning xususiyatlarini o'rganish kerak¹². Formatning talablari janr bajaradigan xususiyatlar bilan bir xil emas. Rus tadqiqotchisi A.N.Nikolayevaning ta'rif berishicha, "Format so'zi janr va uslub kabi adabiy-lingvistik atamalar tarkibiga kiradi. Unga aniq komponentlarga ega bo'lgan materiallarni kiritish mumkin. Janr har qanday matnning muhim ichki parametridir, format esa hali ham tashqi parametrlar bilan o'lchanadi"¹³. G'arb tadqiqotchilaridan V.Axel "Formatni ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq amaliyotning materiallashuvii va bu amaliyotlarni boshqaradigan va qo'llab-quvvatlaydigan standart imkoniyat"¹⁴ sifatida tavsiflaydi.

Nazariyotchilardan ko'ra, amaliyotchi jurnalistlar uchun format tushunchasi konseptual chegaralarga ega bo'lgani uchun bir muncha tushunarliroqdir. Ammo ta'kidlash kerakki, format janr bajargan vazifani bajara olmaydi, turli komponent va resurslar orqali uning ta'sirchanligini oshirishi mumkin, ammo to'liq janrning o'rnini bosa olmaydi. Janr matn tili va uslubiga, format esa materialning umumiy ko'rinishi va texnik parametrlariga javob beradi. "Janr ichidagi nutq tuzilishi an'anaviy janr chegaralarini buzadi va tez orada format ommaviy axborot vositalarining asosiy standartiga aylanadi"¹⁵.

Qolaversa, ushbu bobda publitsistik janrlarining har bir turining an'anaviy va zamonaviy xususiyatlari misollar asosida o'rganilgan, milliy media olamida, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda shaklan qanday o'zgarishlarga uchragani tahlil etilgan. Zamonaviy publitsistik talablarga eng ko'p javob beradigan va nazariyotchi olimlar tomonidan xususiyatlari va mushtarak jihatlari ko'p bo'lgani uchun ocherk janrini keying boblarda to'liq tahlil qilishni lozim deb topdik va ishning ikkinchi bonini "**Ocherk janrining badiiy publitsistikada tutgan o'rni va zamonaviy yondashuv**" deb nomladik.

Bobda ocherkning internet publitsistikasiga moslashuv va interpretatsiyalashuv jarayonlari haqida to'xtalganmiz. Interpretatsiya inglizcha "interpretation" – "talqin", "nuqtayi nazar" degan ma'nolarni anglatadi. Kembridj lug'atida "nimanidir tushuntirish, talqin" deya izohlangan¹⁶. Bu termini ommaviy axborot vositalarining hamma turida uchratish mumkin. An'anaviy janrlarning internetdagi transformatsiyasi, internetning multimediyaviy xususiyati haqida izlanish olib borgan rus olimlari A.A.Kalmikov, L.A.Koxanovalarning fikricha, "an'anaviy ommaviy

¹² Иванова Л.В. Жанры и форматы мультимедийной журналистики как учебная дисциплина и методическая проблема. //Челябинский гуманитарий, 2020. – №. 4 (53). – С.97-104.

¹³ Николаева А.Н. Речевые жанры как новый формат текстовой журналистики. //Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика, 2010. – №. 6. – С.30-35.

¹⁴ Volmar, Axel: Formats as Media of Cooperation. In: *Media in Action. Interdisciplinary Journal on Cooperative Media*, Jg. (2017), Nr. 2, S. 9-28. DOI: <http://dx.doi.org/10.25819/ubsi/8172>.

¹⁵ Николаева А.Н. Речевые жанры как новый формат текстовой журналистики. //Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика, 2010. – №. 6. – С.30-35.

¹⁶ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/interpretation>

axborot vositalari internetni raqobatchi sifatida emas, balki o'sish imkoniyati sifatida ko'radi"¹⁷.

Darhaqiqat, internet va kompyuter texnologiyalarning rivoji ommaviy axborot vositalarining ta'sir doirasini, istiqbolini yanada kengaytirdi. Onlayn jurnalistika an'anaviy jurnalistikaning barcha xususiyatlariga amal qilishni davom ettirgan holda, qo'shimcha: qisqalik, dolzarblik, ixchamlik va samaradorlik kabi yangi funksiyalar hisobiga boyidi. Shu bilan birga texnologik-ekspressiv vositalar orqali o'z imkoniyatlarini quyidagi darajada oshirdi:

gipermatnlilik – bu atama onlayn jurnalistika paydo bo'libdiki, mavjud. U veb muhitda matn ichida havolalar orqali izoh, ko'shimcha ma'lumot, tushuntirish beradigan shakl bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish kontentni sifatli xabardorlikni ta'minlashga yordam beradi. O'quvchiga sodir bo'layotgan voqealarni yaxshiroq tushunishga undaydi. Gipermatn havolasi matn maydonini cheksiz ravishda kengaytirish mumkin. Gipermatnli havolalardan foydalanish "prooflinking" – ya'ni taqdim etilgan faktlarning haqiqiylikni isbotlash uchun ishonchli manbaga asos bo'lib xizmat qiladi.

multimediaviylik – vizual (matn, grafikalar) va dinamik ma'lumotlarni (nutq, musiqa, videokliplar, animatsiya va boshqalar) birlashtirgan kompyuter texnologiyasining maxsus turi bo'lib, bitta interfeys yoki boshqaruv yordamida taqdim etilishi mumkin bo'lgan komponentlardir¹⁸.

interaktivlik – bu auditoriyaga axborotni individual va ko'ngilochar uslubda shakllantirishga yordam beradigan unsur bo'lib, har bir material muallifi multimedia mahsulotlari orqali yoki ma'lum bir tanlov chegaralari orqali interaktivlikdan foydalanadi. Interaktivlik ko'proq axborotni uzatish bilan bog'liq jarayon bo'lib, o'quvchilarning ma'lumotni tushunarli va qiziqarli shaklda qabul qilishga yordam beradi. Video, audioda alohida, infografikada alohida kombinatsiyaga kirishishi mumkin.

sintetiklik – bu xususiyat ham ijobiy, ham salbiy ma'noda qo'llaniladi¹⁹. Boisi, veb materiallar tarkibi bir nechta janrlarning birlashuvi natijasida yanada yangi va murakkab janrlar palitrasi shakllanishiga yordam beradi. Ikkinchi tarafdin esa matn, ovoz, audio, video, statik suratlarni bir joyga birlashishi materialni salmog'ini yanada oshirishi mumkin.

Yuqoridagi xususiyatlar texnologiyalarning takomillashuvi bilan bog'liq jarayon bo'lib, hajmli, rang-barang, mazmunli materiallar uchun yaratish imkoniyatlarni oshiradi. Ammo bu degani an'anaviy janrlar yo'qolib ketadi degani emas, aksincha uni shakllantiruvchi vositalarning ko'payishi, tizimlashishiga yordam beradi. Tadqiqotimizning ushbu eksperimental faslida an'anaviy publitsistik janrlardan ocherkni va ocherk xususiyatlarini o'zida jamlagan zamonaviy onlayn formatidagi ocherklarni qiyosiy tahlilga tortamiz. Buning uchun, avvalo, ularni yozish va taqdim qilishda farqlarni SWOT tahlildan o'tkazib olsak.

¹⁷Калмыков А. А., Коханова Л. А. Интернет-журналистика. М.: Юнити-дана, 2005. –С.112.

¹⁸Чемпен Н., Чемпен Д. Цифровые технологии мультимедиа. 2-е изд.: пер. с англ. М., 2006. –С.26.

¹⁹Антонова В. И. Трансформация типологической и жанровой систем в современной журналистике: по материалам печатных изданий Поволжского региона: автореф. дис. Казань: Казан. гос. ун-т. 2006. –С. 177.

An'anaviy va konvergent ocherkning SWOT tahlili
Zamonaviy konvergant ocherkni onlayn jurnalistikaning yangi janri deb

Janr turi	S–kuchli tomonlari	W-kamchiliklari	O-imkoniyatlari	T – xavf-xatar
An'anaviy ocherk	badiiy-tasvir vositalaridan, so'zni ifodalashda ekspressiv usullardan foydalanilishi; ocherkni yozib, uni taqdim qilish faqat muallifning o'ziga bog'ligi;	Ocherkka bo'lgan auditoriyaning munosabatini bilmaslik; Uning to gazetaning keyingi sonigacha yoki ko'rsatuvning kelasi sonigacha dolzarb bo'lishi; Qahramonni ochib berish uchun multimedaviy komponentlardan kam foydalanilishi; Interaktiv uzatish imkoniyati yo'qligi;	Gazetada e'lon qilgan ocherkdan internetdagi maxsus platformalardan foydalanib, yangi formatdagi material tayyorlash; Televideniye uchun tayrlangan ocherklardan keyinchalik arxiv materiali sifatida foydalanish; Bosma nashrda e'lon qilingan materialni o'qiyotgan o'quvchi o'z taassurotlarini ishga solib o'qishi va xotirasida uzoq muddat muhrlanishi;	Bosma OAVda e'lon qilqan ocherklarning yana qayta o'qish imkoniyatining pastligi; Gazeta va jurnallarni o'qiydigan auditoriyaning kamligi;
OAV turi	S–kuchli tomonlari	W-kamchiliklari	O-imkoniyatlari	T–xavf-xatar
Zamonaviy-konvergent ocherk	Ocherkni bir kishi emas, bir guruh muttaxislar tomonidan tayyorlanishi; Xarakterni, obyektini yoki muammoni chuqur ochib berish uchun multimedaviy vositalardan foydalanilishi; Har safar internetdan foydalaniladigan platformalarning oxirgi versiyalarini ishlatish.	Internet tezligi past bo'lgan hududda materialni barcha komponentlari bilan o'qish murakkabligi; Bitta longridni tayyorlash uchun uzoq muddat tayyorgarlik ko'rilishi; Muallifning universal qobiliyatlarga ega bo'lishi (tashkil qilish, ma'lumotlarni vizuallashtirish, montaj, kezi kelganda operatorlik qilishi) bu vazifalarni hamma birdek uddalay olmaydi.	Auditoriyaning materialning oxirgi qismigacha ushlab turish, e'tiborini tortish imkoniyatining mavjudligi; Materialda qandaydir xato bo'lsa, uni tezda bartaraf etish mumkin; Material uzoq davriylikka ega bo'lishi (katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlangani uchun auditoriya axborotga to'yinadi);	Arxivning o'chib ketish ehtimoli bor; Internetning ham bir kun kelib butunlay yo'q bo'lib ketish xavfi ham yo'q emas

ataydigan olimlar, multimedia komponentlarini uning asosiy xususiyati sifatida qabul qilmaydi. Ular hech qanday suratsiz, multimedaviy vositasiz uzatilganda ham agar izchillik batafsillik bo'lsa, unda bu longriddir, deydi A.V.Kolesnichenko²⁰. Uning fikricha mavzuning tizimli ravishda o'rganilganligi, uzoq muddat mobaynida ma'lumotlar manbalaridan foydalanganligi va mantiqqan bir yo'nalishda integrallashishi ocherkka xos xususiyatdir.

Zamonaviy ocherk matnning tuzilishi multimedia platformalari orqali joylashtirilsa va mavzuni ochib berish uchun onlayn medianing interaktiv imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanilsa, shu janrning o'zini universal jurnalistikaning yangi formati sifatida qabul qilish imkonini beradi.

Zamonaviy ocherk tayyorlanadigan mavzu doimo auditoriyaning diqqat markazida bo'lgan masalalar, muammolar, shaxslarning hayoti, tarixiy jarayonlar, umuman, oddiy bo'lmagan, noodatiylik kasb etgan hodisalarni qamrab oladi. Birgina kursorning vertikal harakati orqali syujetga hamohang suratlar, animatsiyalar, panorama va infografikalar yuklanadi. Alohida ta'kidlash kerakki, u

²⁰ Котаева А. Р. Трансформация жанровой системы в мультимедийной среде (от очерка к лонгриду) Дисс.канд. фил.наук. – С.:2016. – С.52.

xoh ocherk, xoh boshqa formatdagi multimedaviy material bo'lsin, syujetni boshqaruvchi, komponentlarni bir chiziq ostida birlashtiruvchi kategoriya bu – matndir. Agar matn puxta, tugal, tasviriy ifodalarga boy, chuqur o'rganilgan, kompozitsiyasi puxta ishlab chiqilsa, publitsistik asar albatta, yaxshi chiqadi. Ammo matn xom yozilgan bo'lsa, komponentlar turfa xilligi uning mazmunini boyit olmaydi. Zamonaviy ocherk formati uchun xos ushbu xususiyatlar uning an'anaviy ocherk janrining davomchisi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Lekin bu barcha katta hajmli materiallarni ocherk deb qabul qilish kerak, degani emas. Onlayn formatdagi har bir publitsistik material individual tahlilni talab qiladi.

Tahlillar jarayonida an'anaviy va zamonaviy portret ocherkning shakl va mazmuni, ifoda usullari bir-biriga to'la mos kelishiga guvoh bo'ldik. Faqat ocherkning o'quvchi e'tiboriga havola qilishda, farqlar mavjud. Ya'ni, an'anaviy ocherki asosan, so'z, matn orqali uzatilsa, zamonaviy portret ocherkida ta'sir va tasvir funksiyasini so'z bilan birga onlayn mediada auditoriya e'tiborini tortadigan komponentlar (tasvir, ovoz, animatsion usullar) bilan to'ldiriladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har qanday matnga foto yoki video aralashtirilsa multimedaviy publitsistik asar bo'lavermaydi. Avvalo, publitsistik asarda mavzusi to'g'ri tanlanganligi, kompozitsiyaning puxta ishlab chiqilganligi, unda qo'llaniladigan fakt va dalillar, hujjatlarning mantiqiy bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. O'quvchini sezirlarli ravishda ta'sirlantirish, uzun materialni o'qishga undash uchun ocherkda ishlatilgan har bir komponent bir chiziqda birlashishi maqsadga muvofiqdir. Fotoga mos video, videoga fon, fonga mos musiqa – hammasi bir-biri bilan zanjir bo'lib bog'langandagina uni onlayn auditoriya talabiga mos deyish mumkin.

Taniqli yozuvchi, shu bilan birga o'zbek publitsistikasida munosib o'ringa ega bo'lgan Abdulla Qahhor “Yaxshi hikoya uzoq umrli bo'lsa, yaxshi ocherk ham uzoq umrli bo'la oladi”²¹. Adibning bu fikrlari zamonaviy, onlayn ocherklariga ham tegishli, deyish mumkin.

Ushbu bobda axborot texnologiyalari asridagi ocherk xususiyatlari, uning shakllari, qamrovi va multimedaviy formatlar shakliga ko'chib, boshqa nomlarda atalayotgani, multimedaviy janrlardagi publitsistik xususiyatlar tahlil etiladi.

Dissertatsiyaning **“An'anaviy publitsistikaning onlayn mediadagi interpretatsiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida ocherkning multimedaviy formatlar shakliga ko'chib, boshqa nomlarda atalayotgani, multimedaviy janrlardagi publitsistik xususiyatlar tahlil etiladi. Bir guruh nazariyotchilar publitsistik janrlarning media olamida asta-sekin kamayib borayotgani bu bevosita har bir janrda mavjud xususiyatlarning eskiriyotgani, xiralashayotgani bilan bog'lashadi. Yana bir guruh zamonaviy janrlar bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar “Biz yangi paydo bo'lgan “longrid” va “artdok” formatlari (va, ehtimol, bu so'nggi modifikatsiya emas) veb-makonga o'tayotgan va raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan badiiy-publitsistik janrlarning o'zgarishi deb ta'kidlaymiz”, deb aytadi. Misol uchun A.Zolotuxin va Yu.Majarinalar ham longridni badiiy publitsistika, to'g'rirog'i, ocherk janri bilan qiyoslab, uning xususiyatlarini tavsiflaydi. Longridni “ijtimoiy jarayonlarning

²¹ <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-badii-ocherk-togrisida-1940/>

chuqur tadqiqoti, shu jumladan, shaxs mavjudligini o‘rganadigan uzoq hikoyalar²²” deb ataydi.

Xo‘sh, longrid, storitelling, veb-hujjatli film va shunga o‘xshash multimediyaviy formatlarning an’anaviy janrlardan qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi va olimlar eng ko‘p ta’kidlayotgan multimediyaviy loyihalarning publitsistik janrlarga o‘xshash jihatlari nimalardan iborat?

“Longrid” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib (“long” uzoq, “read” o‘qish) degan ma’nolarni bildiradi. Jurnalistika tarixidagi ilk longrid sifatida “The New York Times” gazetasining veb saytida “Snowfall” (Qor yog‘ishi yoki tunel bo‘yidagi ko‘chki) e‘lon qilinganligini yuqorida aytib o‘tgan edik. Matnda chang‘ichilarning fotosuratlari, tog‘larning 3D modeli, audio, video, bo‘ronning interaktiv xaritasi kiritildi. Material 6 kun ichida 3,5 milliondan ortiq ko‘rildi²³. Longrid tarkibidagi komponentlar asosida o‘quvchi ko‘tarilayotgan mavzu yoki muammoni har taraflama o‘rganilganiga guvoh bo‘lishi, chuqur his qilishi, unikal tasavvurga ega bo‘lishi, an’anaviy OAVda taqdim etilganidan ko‘ra noyob, sifatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak. “Longrid bir butun hikoya sifatida qabul qilinishi lozim. Ya’ni, sizning materialingizni ochgan foydalanuvchi yoritilayotgan mavzuning ichiga kirishi lozim. Longridning yana bir xususiyati axborotni xilma-xil tarzda namoyish etishi bilan birgalikda, ko‘tarilayotgan masalani har tomonlama tahlil etishi alohida jihatidir”²⁴.

Filologiya fanlari nomzodi Nargis Qosimova longridni bir nechta ommalashgan turlari mavjudligini ta’kidlaydi.

- portret longrid;
- reportaj longrid;
- rekonstruktor longrid²⁵.

Portret longrid biz yuqoridagi boblarda tahlil qilgan zamonaviy portret ocherkning xususiyatlari bilan to‘la mos keladi. Unda qahramon portreti, o‘y-kechinmalari, hayotiy xulosalari multimediyaviy komponentlar negizida ifodalanadi. Uni o‘qiyotgan auditoriya qahramonni obrazli idrok etishi, so‘z va tasvir uyg‘unligi orqali u haqidagi tipik tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Portret longridni portret ocherkidan muhim farqi ilgari ocherkni birgina jurnalistni o‘zi qog‘ozga tushirsa, longridda material ustida bir nechta mutaxassis ishlashi mumkin. Dizayner, fotograf, operator va hokazo. Masalan, pikchfort.com nashrining amerikalik qo‘shiqchi Janelle Monaye haqidagi portret longridi fikrimizga yorqin misoldir. Longrid²⁶ bir nechta qatlamli skrolling tarzda yaratilgan material bo‘lib, undagi ranglar mutanosibligi, dinamik animatsiya, suratlar sarlavha va unga mos iqtiboslar bilan joylashtirilgan. Longridda qahramonning kundalik turmush tarzi va tarjimai holiga ekskurs qilish bilan birga personajning ruhiy kechinmalarini, ma’naviy olami ochib berilgan.

²²Шинкарюк Анастасия Александровна Жанровая составляющая основных мультимедийных форматов (лонгрид, артдок) // Журналистский ежегодник. 2017. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhanrovaya-sostavlyayuschaya-osnovnyh-multimediynih-formatov-longrid-artdok> (дата обращения: 12.12.2023).

²³Онлайн журналистика ва медиада янги трендлар. 7-жилд – Т.: O‘zbekiston, 2019. – Б.263.

²⁴Онлайн журналистика ва медиада янги трендлар. 7-жилд – Т.: O‘zbekiston, 2019. – Б.263.

²⁵Онлайн журналистика ва медиада янги трендлар. 7-жилд – Т.: O‘zbekiston, 2019. – Б.264.

²⁶ Batton K. Mind Control. <https://pitchfork.com/features/cover-story/reader/janelle-monae/>

Rangsiz fonning rangli fon landshaftga o'zgarishi, qayg'uli kunlarning ortda qolib, orzularning amalga oshishiga ishora qiladi. "Art dok va longridlardagi multimediyaviy komponentlar badiiy ekspressiv vositalarning vazifasini bajarishini aniqladik²⁷". Ya'ni longrid va boshqa multimediyaviy loyihalardagi badiiy ekspressiv vositalar hamda obrazlilik, ta'sir ettirish xususiyatlarisiz biz ularni publitsistikaning zamonaviy modifikatsiyasi deb ayta olmaymiz. Obrazlilik muhim unsur sifatida foydalanilgan yana bir qator longridlarni keltirish mumkin.

Norvegiya qochqinlarga gumanitar yordam ko'rsatish kengashining rasmiy veb sayti nrc.comda e'lon qilingan "Umrbod orzuni tikish" (Sewing a lifelong dream²⁸) fikrimizga yorqin dalildir. Ushbu saytda qochqinlar hayoti to'g'risidagi zamonaviy formatdagi muammoli ocherklar va qiyinchiliklarni yengib o'tgan insonlarning portret longridlari e'lon qilib boriladi. Tashkilot ikkinchi jahon urishidan keyin ishga tushirilgan bo'lib, shu kungacha ko'chirilgan, qochqinda bo'lgan turli millatga mansub insonlarga oziq-ovqat, ta'lim, boshpana, huquqiy yordam va zo'ravonlikdan himoya qilish masalalarida ko'mak berib kelmoqda.

Material mavzusi va mazmuni: Unda urush tufayli ko'chish va qochishga majbur bo'lgan suriyalik kurd millatiga mansub Gulistonning hayot yo'li, taqdiri, kechinmalari yoritilgan. Uning hayot yo'li Al-Hasakadan Dohukkacha bo'lgan yo'nalishda kechadi. Samolyotlar, o'q ovozlari va qichqiriqlarga, ruhiy va jismoniy zararlarga qaramay ayolning hamrohi tikuv mashinasi, qaychi va o'lchov lentasi bo'lgani yuqori saviyadagi infografika va xaritalar orqali ko'rsatib berilgan.

Matnning uslubiy xususiyatlari: material boshidan oxirigacha qahramon tilidan hikoya qilingan. Kasbini sevgan ayol fonida va uning taqdirida Suriyadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, qochqinlar hayoti tasvirlangan. Sanalar ham siyosiy jarayonlarga bog'langan holda keltirib o'tilgan.

Janr turi: Materialda portret va muammoli ocherk turlari qorishib ketgan, ammo bu maqolaning jozibadorligiga ta'sir qilmagan. Ayol portretida minglab qochqin ayollarning hayot tarzi gavdalantirilgan, duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklari ko'rsatilgan.

Tasviriy ifoda vositalari: Longridning sarlavhasida ("Umrbodlik orzuni tikib") tikuvchilik kasbi orqali muhojir ayolning bir umrlik orzusining o'z intilishi bilan erishgani ifodalangan. Sarlavhadayoq metonimiya hodisasi mavjud. Ma'lumki, metonimiya bu ko'p ma'noli so'zlarni ifodalaydigan atama bo'lib, "tasvirning turli vositalar yordamida ifodanalishi (o'xshashlik, sifatlash, majoz istiora)ni yuzaga keltiruvchi²⁹" hodisa sanaladi. Longrid davomida muxojir ayolning ko'chib yashagan hududlari xarita animasion harkatlanadi va yurilgan yo'llar qaychida kesilgan ko'rinishda aks etgan va landshaftning bir qismiga "Guliston Al-Hasakadan Damashqqa yo'l tikdi" deb yozilgan.

²⁷ Шинкарюк Анастасия Александровна Жанровая составляющая основных мультимедийных форматов (лонгрид, арtdок) // Журналистский ежегодник. 2017. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhanrovaya-sostavlyayuschaya-osnovnyh-multimediynyh-formatov-longrid-artdok> (дата обращения: 12.12.2023).

²⁸ [Sewing her lifelong dream \(nrc.no\)](https://nrc.no)

²⁹ Эргашева З. Маъно кўчиш турлари ҳақида назарий маълумот ва уни ўқитиш усулларининг илмий-методик адабиётларда ёритилиши // Та'лим фидойилари. – ISSN 2180-2130. VOL-1, ISSUE – 1. 2022. – Б.13.

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishi metofara³⁰ deyiladi. Predmetning xususiyatlari bir-biriga aloqasi bor yoki mutlaqo farq qiluvchi belgilar bilan qiyoslanadi. Ushbu qismda ham surat, ham matnda ma’no ko‘chishi aks etgan. Bundan tashqari fon uchun foydalanilgan yaltiroq matolar, qaychi va tasmaning joylashuvi material jozibasini oshirgan.

Loyiha alohida veb sahifada ochiladigan vertikal tuzilishga ega. Fon uchun alohida ishlangan tikuvchilik kasbining zarur detallari harakatlanib, materialning inreraktivligini oshirgan.

Multimedia elementlari: foto – 31, fon uchun tikuv mashinasining statik surati 4 ta, videofon – 2 ta; iterektiv xarita 1 ta, onlayn havola – 5 ta. Longridning qolgan rekonstrutiv, reportaj kabi turlari informasion va tahliliy janrlarning zamonaviy interpretatsiyasi deb aytish mumkin. Materialdagi grafika, ifoda uslubiga hamda xususiyatlariga qarab ularni an’anaviy janrlarga ajratish mumkin. “Janrlar tarmoqda yangi nomlar ostida yashashni davom etadi va bu bilan ularning mohiyati ham o‘zgarmaydi”³¹.

“Storitelling” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “hikoya qilish” demakdir. Hikoyalar yordamida muallif murakkab voqealarni auditoriya qiziqishini yo‘qotmagan holda, so‘zlab beradi. Hikoya qilish hodisani ifoda etishning alohida uslubidir. Insoniyat yozuv paydo bo‘lmasidan avval og‘zaki uslubda ma’lumot almashgan. Ma’lumot almashinuvi ba‘zan rasmiy, ba‘zan erkin muhitda amalga oshirilgan. Storitelling tarixini bundan 30 ming yil olin Fransiya janubidagi Chauvet g‘oridagi qoyatoshdagi rasmga bog‘lashadi. Unda mamontlar, sherlar va karkidonlar bilan uchrashganda vaqtinchalik qurollardan foydalanish va tirik qolish uchun hayvonlarning o‘zidan foydalanish, himoyalaniish uslublari haqida hikoya qilingan.

Amerikaning yirik ilmiy doira vakillari jurnalistikada hikoya qilish xususiyatlari 20-asrning ikkinchi yarmida “yangi jurnalistika” tendensiyasining ommalashishi bilan bog‘liq deya ta’kidlashadi. “Yangi jurnalistika” – badiiy adabiyot va publitsistikaning xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, bu yo‘nalish XX asrning 1960-70-yillarida badiiy vositalardan foydalangan holda publitsistik yondashuv bilan ajralib turadigan qator asarlar paydo bo‘ldi. “Yangi jurnalistika” tushunchasining asoschilaridan biri, yozuvchi Tom Vulf “jurnalistik material hikoyaga o‘xshab, o‘qish oson bo‘lishi kerak³²”, deb ta’kidlaydi.

Afsonalar, rivoyat, ertak va hikoyalar, kitoblar, teatrlashtirilgan tomoshalar, ommaviy tomoshalar – hamma joyda storitelling mavjud. Hikoyani aytib berishning turli uslublari bor, ammo u qanday ko‘rinishda bo‘lmasin auditoriyaning faol reaksiyasini (g‘azab, yordam berish tuyg‘usi, hamdardlik) uyg‘ota olishi zarur. Multimediyaviy formatdagi materiallarni o‘qish, hikoyani tinglash yoki ekranda tomosha qilish imkoniyatlari mavjud bo‘lgani uchun auditoriyaga nisbatan “tomoshabin”, “o‘quvchi” va “tinglovchi” so‘zlarini sinonim sifatida ishlatish mumkin.

³⁰ Эргашева З. Маъно кўчиш турлари ҳақида назарий маълумот ва уни ўқитиш усулларининг илмий-методик адабиётларда ёритилиши // Та’лим фидойлари. – ISSN 2180-2130. VOL-1, ISSUE – 1. 2022. – Б.13.

³¹ Трофимов Р.В. Очерковая журналистика: очерк и его виды в современных СМИ. [Очерковая журналистика: очерк и его виды в современных СМИ \(spravochnick.ru\)](#)

